

SIROJIDDIN SAYYID “ONAMNING KULCHALARI” SHE’RINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Adiba Otaqulova Olimovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, konsept, lakuna, muqobilsiz leksika, kognitiv tilshunoslik, paremiologiya, etalon, lisoniy olam, madaniyat, millat.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tilshunosligimizning lingvokulturologiya sohasiga oid tadqiqotlardan xulosalar keltirilgan. Lingvokulturologiyaning predmetlari, xususan konsept tushunchasiga e'tibor qaratilib, Sirojiddin sayyid she'riy matnidagi “kulcha” konsepti atroflicha ochib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, insoniyat paydo bo'lganidan buyon turli rivojlanish bosqichlarini birma-bir bosib o'tmoqda. Ibtidoiy jamoa tuzumidan tortib hozirgacha turli tanazzullar, tabiiy va ijtimoiy omillar shuni ko'rsatadiki, inson borliqning ajralmas qismidir. Tarixdan bizga ma'lumki, u turli hududlarda turli xil turmush tarzida yashab kelmoqda. Dastlab o'zini o'rab turgan olamga qiziqqan, tabiiy jarayonlardan ko'nikma olgan insoniyat bora-bora hayot qobig'i-biosferaga ta'sir o'tkazishga ham qodir bo'la oldi, buning natijasida ilmda yangi tushuncha -“noosfera”(fikrlovchi qobig') paydo bo'ldi. V.I.Vernadskiy tomonidan fanga kiritilgan bu atama inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro onli aloqalarni o'z ichiga olmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kun ilm-fani barcha sohalarda inson va uning faoliyatini asosiy o'ringa, markaziy maydonga qo'yib o'rganmoqda.

Bugungi davr tilshunosligi ham tilni nazariy tomondan ko'ra ko'proq amaliy jihatlariga e'tibor qaratishni maqsad qilib qo'ydi. Tilshunosligimizda tilni aloqa quroli, tafakkur mahsuli sifatida emas, ma'lum bir xalq mavjudligi, xalq madaniyatini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida tadqiq etuvchi yangi sohalar yuzaga kelmoqda. Tilga antroposentrik yondashuv bugungi kun talabi bo'libgina qolmay, boshqa sohalarning rivojlanishi uchun zaruriyat ham bo'ldi. Bu nazariyaga ko'ra til insonda, inson tilda tahlil etildi. Antroposentrik paradigma tilni jamiyat, madaniyat va ruhiyat kabilar bilan aloqadorlikda tahlil etishga qaratilgan g'oyalar yig'indisidir. U qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmalardan keyingi bosqich bo'lib, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik va pragmatika kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Antroposentrik tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiya bo'lib, tilning madaniyat, milliy mentallik, urf-odat, qadriyat tamoyillari bilan bog'liqligi va ta'sirini o'rganadi. Bu sohaning nazariy ildizlari V. Fon Gumbolg'dtga borib taqalsa-da, rivojlanishi borasida A.A Potebnya, L.Vaysgerber, V.N Teliya, V.A Maslovalarni aytib o'tmaslikning iloji yo'q. "Lingvokulturologiya" termini V.N Teliya rahbarligidagi Maskova frazeologik maktabi tadqiqotlaridan paydo bo'ldi. O'zbek tilshunosligida bu soha ildizlari azaldan mavjud bo'lgan bo'lsa-da jiddiy tadqiqot ishlari yaqin yillardan buyon olib borilmoqda. Tilshunos S.M Mo'minov "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy -lisoniy

xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida yozadi: ”muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o’ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an’alarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o’rganish mumkin emas”. Professor Sh.Safarov “Semantika” nomli monografiyasida lingvomadaniy konseptga oid qarashlarini talqin etdi. M.X Hakimov “O’zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o’ziga xosligini ko’rsatishda muhim rol o’ynashini ta’kidladi. Tilshunos olim Xudoyberganova “Matnning antroposentrik tadqiqi” ni yaratdi.¹ U o’zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini keng ko’lamda xalq ijtimoiy, ruhiy faoliyatini hisobga olib o’rganishni ochib berdi.

Xalqning olamni idrok etishdagi jihatlari uning shuuri, madaniyatida namoyon bo’ladi. Madaniy olamning kashf etilishida xalqning yashayotgan muhiti, faoliyat jaroyoni asosiy omil sanaladi. Masalan, badiiy asarlarimizda qora rang qayg’u, umidsizlik, ayriliq, yovuzlik tushunchalarini ifodalasa, bu Afrika xalqi uchun ijobiy tushuncha ham ifodalovchi birlik sanaladi. Lingvokulturologiyaning predmetlari ma’lum bir xalqning yashash tarzi, qadriyat va an’alari negizida paydo bo’lgan desak, adashmaymiz. Muqobilsiz so’zlar, lakunalar, arxetiplar, mifologemlar, rasm-rusmlar, odatlar, paremiologik birliklar, frezeologizmlar, etalonlar, sterotiplar, ramzlar, metofaralar lingvokulturologiyaning predmetlari sanaladi. Har qanday tilda ushbu birliklar o’ziga xos bo’lib, xalqning tarixi, mentaliteti va dunyoqarashi bilan ham bog’liqdir. Har qanday tilda boshqa tilga aynan tarjima qilib bo’lmaydigan so’zlar bo’ladi, buni muqobilsiz leksika deb ataymiz. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o’zlashtirilganda ularni ekzotik leksika deb ham ataymiz. Ekzotizmlar o’zga madaniyat ramzi, belgisi sifatida qaraladi. Do’ppi, palov, belbog’ kabilar. Nominativ birliklarning milliy- madaniy o’ziga xosligi faqat nomuqobillik emas, lakunalarda ham namoyon bo’ladi. Bu ma’lum bir tilda boshqa tillarda mavjud tushunchalarni ifodalaydigan so’z va ifodaning yo’qligi sanaladi. Muqobilsiz leksikani boshqa tilga aynan tarjima qilib berish imkonsiz. Shuning uchun transliteratsiya yo’li bilan tahlil qilish ma’qul ko’rildi. “Amerika Qo’shma shtatlari “dollar” ining, ingliz “funtsterling”ining, nemis “marka”siyu hind “rupiya’si, afg’on “afg’oni”sining transliteratsiya qilmasdan, o’zbek so’mi bilan almashtirib qo’yilishi, AQSh “brend”si, ingliz “viski”si, nemis “shnaps”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o’rniga o’zbek “do’ppi”sini egniga “palto” yoki “plashch” o’rniga “to’n” yoki “yaktak” kiygizib qo’yish bilan barobar.²

O’zbek tilshunosligida lingvokulturologik birliklar qadimdan mavjud bo’lib, alohida tadqiq etilmagan bo’lsa-da, xalq lisoniy olamida saqlanib kelgan. “Devonu lug’otit turk”, “Qutadg’u bilig”, “Tosh bitiktoshlar” misolida aytish mumkin. Bu asarlarda qo’llangan o’xshatishlar, frazeologizm va paremiologik birliklarda xalqimizning tarixiy dunyoqarashi, madaniy xususiyatlari yaqqol ko’zga tashlanadi. Zero har qanday xalqning merosi uning faoliyati, ruhiyati, bilimi, madaniyatining jamlanmasidir.

Lingvokulturologiyada keyingi yillarda “konsept” atamasi faol ishlatilmoqda. Bu atama dastlab kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasini anglatgan bo’lsa-da, endilikda lingvokulturologiya va adabiyotshunoslikda ham qo’llanib kelinmoqda. Bu termin o’tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so’ziga sinonim sifatida ishlatib kelingan, biroq bugungi kunda bu so’zning ma’nolari turli aspektda o’rganilgani bois yana-da kengaygan. Konsept yordamida inson ma’lum bir xalq madaniyatini anglasa, ma’lum bir xalq madaniyati esa konsept sifatida inson ongida shakllanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov o’zining “Til tilsimi tadqiqi” risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab” maqolasida konseptni milliy-madaniy unsurdan tamoman yiroq bo’lgan hodisa sifatida o’rganish munozaraliligini aytib o’tgan. Konsept tafakkurni aks ettiruvchi tushuncha ekan, demak unda madaniyat mavjudligini inkor etib bo’lmaydi.” Inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo’nalishda o’zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug’ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna - konsept sifatida shakllanib,

¹ Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2013

² Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. - Toshkent: Fan, 2005. - b.93

moddiy nom olishini taqazo qiladi”³.

Lingvokulturologik konsept ko'pincha badiiy asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi, zero har qanday badiiy matnda ijodkorning individual madaniy olami bilan bir qatorda u tegishli bo'lgan xalqning milliy-madaniy qiyofasi yoritib beriladi. Shoir Sirojiddin Sayyid she'riy matnlarida “kulcha” so'ziga ko'p murojaat etilganini guvohi bo'lamiz. “kulcha” so'zi lingvokulturologik konsept sifatida o'zbek xalqining o'zligini, madaniy dunyoqarashini, xarakterini ifodalay oladi. Boshqa xalqlarda bu so'z “non” ma'nosini ifodalasa-da, bizning xalqimizga xos xususiyatlarni, madaniy tushunchalarni to'la aks ettirmasligi aniq. Dunyoda nonning yuzlab turlari bor, xususan Germaniyada nonning rangi, tuzilishi, qanday pishirilishiga ko'ra xilma-xil turlari topiladi. Lekin hech bir mamlakatda o'zbek xalqining orzuniyatlarini, ruhiyati, hayot faoliyati, madaniyatini ochib beruvchi aynan “kulcha” topilmaydi. Kulchataandirda yopilgan kichkina dumaloq non. Ruschada небольшая круглая лепешка deyiladi. Madaniy konsept sifatida bu tarjima to'la o'zini oqlay olmaydi. chunki uning aynan tandirda yopilishi, kimga atalgani, nega yopilishi, qanday niyat va maqsadda yopilishi bu tarjimada to'la ifoda etilmaydi. Tarjimalarda bu so'zning umumiy ma'nosigina anglashiladi, xolos. Kulcha qadimdan orzuniyat, rizq, yaxshilik, ezgulik ramzi bo'lib kelgan. Bugungi kunda bu so'zning ma'nosi kengayib, oldiga sifat bildiruvchi so'zni qo'shib shirin kulcha, qiymali kulcha, teshik kulcha deb yangi ma'nolar kashf etilmoqda. Ayrim hududlarimizda esa dialektal birlik sifatida ovqat nomini ham ifodalaydi. Kulchatoy taomi ma'lum hudud vakillari uchun tushunarli bo'lgan taom bo'lib, shaklan adabiy tildagi “beshbarmoq” xamirli taomiga o'xshaydi. Dialektologik tadqiqotlardan ma'lumki, qisqartirgan holda Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida (payariq, ishtixon, Qo'shrabot) “kulcha” deb ham ataladi. Uning “moy kulcha”, “kalla go'sht kulcha” turlari ham uchraydi. Kulcha konsepti lingvokulturologik birlik sifatida nonning kichigi -“bolasi” deb qaraladi. Xalqimiz kulchani non xamiri zuvalasi kichik bo'lib qolganidan yoki ortib qolganidan emas xamir qilishdan avval niyat qilib pishiradi. Kulcha nasiba, rizq, unib-o'sish, avlodlar davomiyliigi mazmunini ifodalaydi. Non kabi ko'zga surtiladi, qadrlanadi. Kelinchak yuz ochar marosimlari, chimildik udumlari, beshik to'y kabilarda ham shu maqsadlar sabab kulchalar yopiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu so'z farzand ma'nosini ham ifodalaydi.

Non yopganda, non yopganda mening oyim.

Issiq kulcha, issiq kulcha yopar doim.

Bolalarning sevimli qo'shig'iga aylangan bu she'r matnidan sezilib turibdiki, kulcha bolalar uchun maxsus tandirda yopiladi. Onalarning kulcha yopishlari orqali farzandiga risq-nasiba tilashligini ham she'r mazmunidan anglashiladi. Bolalikda har bir o'zbek bolasi kulcha yopilishini bir bayramdek kutib oladi, sababi kulcha aynan u uchun atalgan, u uchun yopilgan. Xuddi non kabi dum-dumaloq bo'ladi (to'rtburchak yo uchburchak emas). Sirojiddin Sayyidning “ Onamning kulchalari” she'riy matnidan misollar keltiramiz:

Keltirdi tong chog'i bir sabo va bir qush xabar:

Ochilmish bahorning ilk boychechak –gulchalari.

Lekin men uchun eng zo'r, eng quvonchli xushxabar-

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Shoir S. Sayyidning bu misrasidan ma'lumki, u bahorni ancha kutgan, kelganida esa uning kelishidan emas, onasi yopgan kulchalarning kelganidan quvongani aytilgan. Chunki haqiqiy bahor insonga chin mehr-muhabbatni olib kelishi kerak.

Ming chaqirim yo'l bosib kelgan sov'g'a-salom bu,

Mehr bilan boylangan to'sha-tugunchalari.

³ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax-2006. 25-bet

Har biri quyosh yanglig' charaqlagan olam bu-

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Birinchi banddagi takrorlar kutilmagan xushxabardan quvonganini ko'rsatsa, ikkinchi bandda e'tibor to'la-to'kis kulchalarga qaratiladi. Chunki uni onasi (ancha qarib qolgan bo'lsa-da) aynan o'g'li uchun ataylab o'z qo'llari bilan yopgan. Bunda kulchani aynan "bolasi uchun atalganlik" ma'nosi ham seziladi. Shuningdek shoir quyoshday issiq va dumaloqligini eslatgan. Shoir kulchaga keyingi bandda ham ta'kid ma'nosini yuklab, unga umid, yashash ishtiyoqini berishini aytadi:

Har gal umid keltirgay, keltirgaydir tiriklik.

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Hatto keyingi bandda ona aytolmagan gaplarini kulcha orqali aytganday bo'ladi, kulcha tasalli, taskin ramzi bo'lib ifodalanadi. Takrorlangan kulchalar esa shoir o'y-xayollarini ifodalaydi:

Qirq yilkim taskin bergayeng tansiq diydor kabi-

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Keyingi band juda ta'sirli, endi kulcha orqali butun inson- ona gavdalanadi. Onasining firoqdan kichraygan jussasi kulchaga qiyoslanadi.

-Onangdan xabar olgin, Siroj, sen tez-tez borib...

Firoqlardan kichraygan jussasi, kulchalari,

Sizni ko'ziga surtgay ustoz Abdulla Orif,

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Bu misrada Shoir Abdulla Oripovni tilga olib, uning onasi hayot emasligini, unga bu borada havas qilishini qistirib o'tadi. Zero kulchalar faqat o'z onalari tomonidan bolalariga yopiladi. Shoir keyingi bandda ona uchun farzand hamisha yosh bola bo'lib qolishini isbotlaydi:

Sizning nazdingizda lek men hamon talabaman.

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Shoir so'nggi band oxirida onasining mehri va sog'inchini uning kulchalariga o'xshatadi, ya'ni kulcha ona mehri-muhabbati ramzi bo'lib ifodalanadi. Shoir "onamning kulchalari" deb har band so'ngida ta'kidlashi ham bejiz emas, bu faqat onalarning farzandlariga bo'lgan mehrlari sof, samimiy, chin bo'lishini anglatadi.

Mehr-u sog'inch bobida o'xshaydi o'zlariga

Onamning kulchalari, onamning kulchalari.

Xulosa

Lingvokulturologiya xalq madaniyatining tilda aks etishi yoki ma'lum xalq tilida uning madaniyatining mushtarakligini o'rganuvchi antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo'nalishidir. Lingvokulturologiya etnolingvistika, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, pragmatika kabi tilshunoslik sohalari bilan uzviy aloqada. Lingvokulturologiyaning mohiyati va tamoyillarini ochib berishda xalq an'ana va qadriyatlarini mahsusi bo'lgan milliy –madaniy tafakkur asosiy o'rin tutadi. Milliy-madaniy tafakkur esa turli lingvokulturologik birliklarda, lingvokulturologik tushunchalarda namoyon bo'ladi. Sirojiddin Sayyidning "Onamning kulchalari" she'riy matnida ham "kulcha" so'zi o'zbek xalqining milliy madaniyati, boy ma'naviyatini aks ettiruvchi lingvokulturologik konsept bo'lib kelgan. "Kulcha" konsepti o'zbek xalqi tafakkurida mehr-oqibat, rizq-nasiba, o'sish-ulg'ayish, farovonlik, ezgulik ulashish, farzand tilash ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, "Kulcha" konsepti orqali "kulcha yuz",

“kulcha bo’lib yotmoq”, “kulcha bolib qizarmoq” o’xshatishlar ham xalq lingvokulturologiyasini boyitgan. “Siddiqjon shunday qattiq kuldiki, burchakda kulcha bo’lib yotgan mushuk shoshib o’rnidan turdi”.(Abdulla Qahhor “Qo’shchinor chiroqlari”) “Jahon adabiyoti” jurnalida rejissor Bahodir Yo’ldoshevning maqolasida mana shu gapini o’qib, naqafat oy, balki olovli so’zini qo’llash orqali quyoshni ham bemalol kulchaga o’xshatib bo’lishining yana bir karra isbotini ko’rdim: “Mana shunday katta koinot falakdagi bittagina olovli kulcha bilan to’yinib yuradi. Senga nima yetishmaydi, odamzod?”⁴

Ona xalqimiz so’zga boy, madaniyati yuksak bo’lgani bois uning tilida bitmas-tuganmas xazinalar, hali ochilmagan bo’stonlar va tilshunoslik ilmi tadqiqotchilari yetib bormagan manzillar talaygina. Zamonaviy tilshunoslikning oldiga qo’ygan maqsadlaridan biri ham aynan lingvokulturologik tadqiqotlarni yana-da rivojlantirish sanaladi. Zero Lingvokulturologik tadqiqotlar xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, dunyoga har tomonlama tanitadi va rivojlanish asosini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax. 2006.
2. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. Toshkent. “Mumtoz so’z”. 2017
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil.-Toshkent,”O’qituvchi”,1995
4. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati” –Toshket.2002.
5. S. Sayyid. Tanlangan asarlar.-Toshkent . 2019
6. Mahmudov N.Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab.O’zbek tili va adabiyoti, 2012.N5
7. Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent. 2008.

⁴ “Jahon adabiyoti”,2013-yil .3-son